

---

## BUGUN TOSHLOQ TUMANIDA “YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON AZIZ!” SHIORI OSTIDA XAYRIYA TADBIRI O‘TKAZILD

Mustaqilligimizning 31 yilligi bayrami munosabati bilan ehtiyojmand oilalar farzandlariga bepul maktab formalari topshirildi.

Tuman hokimligi tashabbusi bilan tumandagi umumta’lim maktablarida tahsil oluvchi 250 nafar kam ta’minlangan hamda “Temir daftar”, “Ayollar daftari” hamda “Yoshlar daftar”lari ro’yxatida turuvchi oilalarning farzandlariga yagona maktab formalari bepul sovg’a qilindi.

Tadbirda ishtirok etgan tuman hokimi A.Djurabayev hamda sektor rahbarlari yurtimizda hech kim mehr va e’tibordan chetda qolmasligini ta’kidlab, bolalar va ularning yaqinlarini bayram bilan qutladilar.

2022-09-01 10:13:19